THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

ADABIYOTLAR TAHLILI VA ME'TODLAR

O‘zbekistonda yoshlar bandligining statistik tahlili: ishsizlik, bandlik, yoshlarning iqtisodiy nofaolligi va mehnat bozori muammolari

Shakirova Nigora Axralovna
Tashkent State University of Economics
PhD, Associate Professor, Department of Economic Statistics
Phone: +99894-364-00-50
E-mail: shakirova0130@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-5025-4764
Ziyotov Shahriyor Asqadovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya va moliyaviy texnalogiyalar fakulteti talabasi
Tel: +998971777988
E-mail: shahriyorziyotov2007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-tahliliy maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi yoshlar bandligi, ishsizlik dinamikasi, NEET (*Not in Education, Employment or Training* — o‘qimayotgan, ishlamayotgan va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmayotgan) yoshlar muammosi hamda mehnat bozoridagi tizimli nomutanosibliklar statistik va empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Jahon banki, UNICEF, Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi hamda mehnat iqtisodiyoti bo‘yicha ilmiy nashrlar ma’lumotlaridan foydalanilgan. Tahlillar natijasida gender tengsizligi, ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi malaka bo’shlig’I hamda hududiy va raqamli infratuzilma tafovutlari tahlil qilinib, muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar bandligi, ishsizlik darajasi, NEET ko‘rsatkichi, demografik dividend, gender tafovuti, malaka bo’shlig’i, raqamli mexanizmlar, mehnat migratsiyasi.

Abstract: This scientific and analytical article examines youth employment, unemployment dynamics, the issue of NEET (Not in Education, Employment or Training) youth, and systemic imbalances in the labour market of the Republic of Uzbekistan based on statistical and empirical data. The study draws on data from the Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan, the World Bank, UNICEF, the Social Policy Laboratory, and academic publications in the field of labour economics. The analysis identifies gender inequality, the skills gap between education and the labour market, as well as regional disparities and differences in digital infrastructure, and puts forward evidence-based practical recommendations for addressing these challenges

Keywords: Youth employment, unemployment rate, NEET indicator, demographic dividend, gender gap, skills gap, digital mechanisms, labour migration.

KIRISH

O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida mutlaq sonlar kesimida eng katta yoshlar ulushiga ega bo’lgan mamlakat hisoblanadi. Bugungi kunda respublika aholisining 60 foizga yaqinini (20 milliondan ortiq) 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Aholining umumiy demografik tarkibida 14–30 yosh oralig‘idagi yoshlar soni 9,6 million kishiga (4,9 million erkaklar va 4,7 million ayollar) yetgan [1]. Iqtisodiy nazariyada ishga layoqatli aholi sonining qaram guruhlar (bolalar va keksalar) soniga nisbatan tezroq o‘sishi “demografik dividend” imkoniyatini yaratadi. Biroq, ushbu demografik salohiyat mehnat bozorida munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlanmasa, u ijtimoiy himoya tizimi va iqtisodiyot uchun og‘ir yukka aylanishi xavfi mavjud. Kelgusi 10 yil ichida

O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi soni yana 12 foizga oshishi kutilmoqda. Bu esa har yili yuz minglab yangi mehnat resurslarining bozorga kirib kelishini va bandlik siyosatini tubdan takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi [2].

Ushbu tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari kompleks tahlil qilingan. Tahlil jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ochiq ma’lumotlar portali va "O‘zbekistonda mehnat va bandlik" statistik to‘plamlaridan foydalanildi va qiyosiy tahlil qilindi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda yoshlar bandligini davlat tomonidan tartibga solish institutsional mexanizmlar, davlat bandlik siyosati va faol mehnat bozori dasturlari doirasida tadqiq etilgan. G. Esping-Andersen, J. Stiglitz va R. Freeman ilmiy ishlarida davlatning mehnat bozoridagi tartibga soluvchi roli, institutsional muvofiqlashtirish va axborot ochiqligining ahamiyati asoslab berilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni boshqarish masalalari M. Castells, K. Schwab, E. Brynjolfsson va A. McAfee tadqiqotlarida yoritilib, raqamli platformalar mehnat bozorida axborot assimetriyasini kamaytirishi ko‘rsatib o‘tilgan

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida umumiy ishsizlik darajasi izchil pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2025-yilning III choragi yakunlariga ko‘ra, respublikada umumiy ishsizlik darajasi 4,9 foizga tushdi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatda oxirgi marta 2013-yilda 5 foizdan past (4,9%) bo‘lgan edi. Ushbu davrda iqtisodiy faol aholi soni 15,57 million kishiga yetgan bo‘lsa, ishsizlar soni 760 ming kishini tashkil qildi. Jahon banki (WDI) hamda rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 15–24 yoshdagi yoshlar ishsizligi 2020-yilda 12,838 foiz, 2021-yilda 13,042 foiz, 2022-yilda 10,962 foiz, 2023-yilda 10,858 foiz va 2024-yilda 10,939 foiz darajasida shakllangan. Shuningdek, respublika bo‘yicha

342 mingga yaqin yoshlar rasman ishsiz sifatida ro‘yxatga olingan. Munosib ish topa olmagani sababli yosh ishchi kuchining 5 foizi ish qidirishni to‘xtatgan [3].

1-jadval. O‘zbekistonda yoshlar (15–24 yosh) ishsizligi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (2020–2024-yillar)


Ko‘rsatkich / Yil	2020	2021	2022	2023	2024
Yoshlar ishsizlik darajasi (15–24 yosh), %	12,84%	13,04%	10,96%	10,86%	10,94%
Umumiy ishsizlik darajasi (respublika bo‘yicha), %	10,50%	9,60%	8,90%	6,80%	5,50%
NEET yoshlar ulushi (15–24 yosh), %	17,40%	18,10%	16,30%	15,60%	15,20%
Iqtisodiy faol aholi soni, mln kishi	14,80	14,98	15,04	15,04	15,10

NEET (*Not in Education, Employment or Training*) ko‘rsatkichi ta’limda, bandlikda va kasbiy tayyorgarlikda qatnashmayotgan iqtisodiy nofaol yoshlar guruhini ifodalaydi.

Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondagi 14–30 yoshdagi yoshlarning **33,2 foizi** NEET toifasiga kiradi. Ushbu yoshlar qatlamining **36,1 foizi** ish bilan band bo‘lsa, **30,7 foizi** ta’lim olish yoki kasb-hunar o‘rganish bilan mashg‘ul. UNICEF hisobotida 19–30 yosh oralig‘idagi yoshlar o‘rganilganda, NEET darajasi **54,6 foizni** tashkil etishi ko‘rsatilgan [4].

2-jadval. Yosh guruhlari va gender kesimida NEET, bandlik va ta'lim ko'rsatkichlari (%)

Kategoriya / Guruh	NEET ulushi (%)	Bandlik darajasi (%)	O'qiydi / Kasb o'rganadi (%)
14–19 yosh	25,2%	10,3%	64,5%
20–24 yosh	38,2%	42,9%	18,9%
25–30 yosh	38,2%	59,9%	1,9%
Erkaklar (14–30 yosh)	19,4%	51,3%	29,4%
Ayollar (14–30 yosh)	48,4%	19,3%	32,3%



O'zbekistnda ayollar orasidagi NEET darajasi (**48,4%**) erkaklarnikidan (**19,4%**) 2,5 barobardan ziyod yuqori. Kengroq yosh guruhlarida (UNICEF ma'lumotlariga ko'ra 19–30 yosh oralig'ida) yosh ayollarning NEET darajasi **74,0% ga** yetadi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, 25–34 yoshdagi erkaklarning 93%i ish bilan band bo'lsa, ayollar orasida bu ko'rsatkich **atigi 56% ni** tashkil etadi. Nikoh omili erkaklar va ayollarning bandligiga diametral qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Turmush qurmagan yoshlar orasida NEET darajasi bor-yo'g'i **12,5%** bo'lsa, turmush qurgan yoshlarda bu ko'rsatkich **49,4% ga** ko'tariladi. Nikoh erkaklar bandligini ikki barobarga oshirgani holda, ayollarni rozg'or va bola parvarishi sababli mehnat bozori va ta'limdan to'liq siqib chiqaradi. Oilalarning moddiy farovonligi NEET xavfini belgilaydi. Kambag'al oilalardagi yoshlarning **53,9 foizi** NEET maqomida bo'lsa, kambag'al bo'lmagan oilalarda bu ko'rsatkich **32,0 foizni** tashkil etadi. Eng quyi (1-kvintil) daromadli xonadonlarda NEET darajasi qariyb 50% ga yetadi, eng yuqori (5-kvintil) qatlamda esa **20,8% ga** teng [5].

XULOSA

O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash nafaqat ijtimoiy masala, balki mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi strategik vazifadir. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili" davlat dasturida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun bir qancha yo‘nalishlar taklif etiladi. Germaniya va Singapur (SkillsFuture) tajribasi asosida OTM va kollej talabalarini o‘qish davridanoq korxonalarga biriktirish. va o’quv dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirib, nazariy diplomdan ko‘ra amaliy ko‘nikmalarga ustuvorlik berish ko’rsatkichlarni ijobiy tomonga o’zgartiradi [6]. Yosh onalarga va oilali ayollarga masofaviy ishlash (freelance, IT), moslashuvchan ish grafiklarini yaratish juda muhim o’rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim va bolalarni parvarishlash infratuzilmasini kengaytirish orqali ayollarni NEET toifasidan chiqarish ham juda katta amalliy ahamiyatga ega bo’ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mansurov, Sh., Bozorboyev, D. (2024). O‘zbekistonda yoshlar bandligi: imkoniyatlar va muammolar. International Scientific and Practical Conference "Science technology & Digital finance", NUUz Jizzakh branch, 6-dekabr 2024 y. - 80 B.

Mansurov, Sh., Bozorboyev, D. (2024). O‘zbekistonda yoshlar bandligi: imkoniyatlar va muammolar. International Scientific and Practical Conference "Science technology & Digital finance", NUUz Jizzakh branch, 6-dekabr 2024 y. - 80 B.

https://vatandosh.net/oz/news/381

UNICEF Uzbekistan. (2020). Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы. Нац. исследование, Ташкент: Представительство ЮНИСЕФ в Узбекистане, 1–150 В.

. https://paradigma.uz/uz/news/fan-texnologiya/yoshlar-nega-talim-va-ishdan-uzilyapti-tadqiqot-4347

Chintemirova, D. Sh. (2025). Skills over degrees: A statistical analysis of labor market trends. Science and Innovation (Scientists.uz), Vol. 4, Zenodo, 18–27 b.

7. Jahon banki (Honorati, M.). (2021). Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, DC: World Bank Group / Xalqaro